

QAHRAMONLIK EPOSLARIDA URUSH KISHILARI TASVIRI:
OBRAZ VA TALQIN

Xolmatov Oybek Umarjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti,

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada xalq eposlarida urush va inson talqini, jangovar epizodlar tasvirining badiiy xususiyatlari tadqiq etilgan. "Alpomish" va "Odisseya" dostonlarining qiyosiy tahlili asosida qahramonlik eposlarida ifodalangan urush voqeligining g'oyaviy asoslari o'rganilib, tahlillar ilmiy asosda dalillangan. Tahlillar davomida tegishli mavzuga doir ilmiy manbalardan foydalanilgan.*

Kalit so'zlar: *folklor, epos, obraz, talqin, "Alpomish", "Odisseya", sayyor syujet, qiyosiy metod.*

Kirish. Qahramonlik eposlari ilk bor og'zaki adabiyotda vujudga kelgan bo'lib, ularda turli xalqlarning va davlatlarning paydo bo'lish jarayonlari, qabila va millatlar o'rtasidagi kurash jarayonlari, Vatan himoyasi yo'lida kurashgan qahramonlarning jasoratlari o'z aksini topgan. Bunday dostonlarda urush tasvirlari muhim o'rin tutadi. Aynan jangovar epizodlar, jang maydonidagi holatlar tasviri qahramonlik eposlarining salmoqli qismini tashkil etgan holda qahramonlarning xarakteri, o'ziga xos xususiyatlarini aniq ifodalaydi. Shuningdek, qahramonlik eposlari qaysi millatga tegishli ekanligidan qat'iy nazar ko'plab umumiy xususiyatlarga, o'xshash jihatlarga ega bo'ladi. "Sayyor syujet" tushunchasi ham, birinchi navbatda, folklor namunalariga taalluqli bo'lib, bu borada qahramonlik dostonlari alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, folklor motivlari qadimgi davr yozma dostonlariga ham ko'chib, yangi xususiyatlar bilan boyidi. O'zbek folklori namunasi bo'lmish "Alpomish" hamda qadimgi yunon shoiri Gomerning Troya turkumi afsonalari asosida yaratgan "Odisseya" dostonlari yuqoridagi fikrlarning isboti bo'la oladi.

Material va metodlar. "Alpomish" va "Odisseya" dostonlari doimiy ravishda komparativist olimlarning e'tiborida bo'lib kelgan. Xususan, V.Jirmunskiy, V.Propp, K.Reyxl, A.Abdurahmonov, J.Eshonqul kabi mutaxassislar dostonlarni qiyosan o'rganib, ular o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni tahlil qilganlar. Shuningdek, antik adabiyot va qadimgi Markaziy Osiyo madaniyati o'rtasidagi aloqadorlik masalasini tadqiq etgan Fozila Sulaymonova ham bu dostonlarning syujet va badiiy o'xshashliklari haqida fikr yuritgan [1, 40-98]. Umuman, "sayyor syujet" nazariyasi haqidagi bahslar, adabiy ta'sir va tipologik o'xshashliklar masalasi yuzasidan ilmiy bahslar uchun bu ikki doston asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Hozirgacha bo'lib o'tgan ilmiy munozaralarda V.Jirmunskiy talqini eng mukammal talqinligicha qolmoqda. Olim "Alpomish haqidagi doston va Gomerning "Odisseya"si" nomli maqolasida dostonlar yuzasidan quyidagicha

xulosaga keladi: “Og‘zaki ijod namunalari o‘rtasidagi o‘xshashliklar “adabiy ta’sir” mahsuli emas, balki qadimgi davrlarda keng tarqalgan umumiy ertak syujeti natijasidir” [2,332].

Natijalar. Ikki dostonning qiyosiy tahlili natijasida bosh qahramonning uzoq yillik tutqunlikdan so‘ng yurtiga qaytishi, yaqinlari va xalqiga zulm qilayotganlardan o‘ch olib, xaloskor sifatida namoyon bo‘lishi, o‘z ayolining to‘yi kuni kelib qolishi kabi epizodlar o‘rtasidagi umumiylik yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, dostonlar bosh qahramon yurtiga qaytgach, birinchi bo‘lib cho‘pon qullarining oldiga borishi, qahramonlarni birinchi bo‘lib vafodor jonivorlari tanishi kabi belgilar orqali ham umumiylik kasb etadi. Eposlar o‘rtasidagi o‘zaro o‘xshashliklar xalqlar o‘rtasidagi badiiy tafakkur yaqinligi, qadriyatlar umumiyliги bilan bog‘liq. Ushbu ikki doston syujet, obrazlar galereyasi, turli detallar tasviri jihatidan ko‘plab umumiy xususiyatlarga ega. Biroq, ikki doston o‘rtasida faqat o‘xshash emas, farqli tomonlar ham mavjud. Bu tafovutlar, ayniqsa, qahramonlarning jangovar xislatlari, urush epizodlari va qurol-yarog‘lar tasvirida aniqroq ko‘rinadi.

Tahlillar. “Alpomish” dostonida bosh qahramon metin, o‘tda yonmas, o‘q o‘tmas holatida tasvirlanadi. Masalan, Surxayl kampir Alpomishni xiyla-nayrang yo‘li bilan bexush qilishga erishgach, uni o‘t qo‘yib ham, qilich bilan chopib ham, o‘qqa tutib ham o‘ldira olmaydilar. Bu tadbirlar Alpomishga hech qanday zarar yetkaza olmaydi. Lekin, Gomerning “Odisseya” dostonida bosh qahramon bunday xususiyatlarga ega emas. Odisseyning oyog‘ida mashhur chandiq bo‘lib, yoshligida yirtqich to‘ng‘iz uni jarohatlagandi. Odisseyning enagasi Evrikleya qahramonni ana shu chandiq orqali tanib qoladi. To‘g‘ri, Alpomishda ham shunga o‘xshash “shartli belgi” bor edi. Ya’ni uning yelkasida Shohmardon pining besh panjasidan qolgan dog‘ bor bo‘lib, Qultoy uni ayni shu belgidan tanib oladi. Ammo Alpomishning bu belgisi jang yoki olishuvda orttirilgan jarohat emas, ilohiy belgi edi.

Undan tashqari, Gomerning dostoniga kiritilmagan Odisseyning o‘limi haqidagi yunon afsonalaridan birida qahramon dushman otgan o‘qdan halok bo‘ladi. Demak, Odissey obrazi yuqoridagi xususiyatga ko‘ra Alpomishdan farqlanadi. Ushbu obraz tasvirida ideal xususiyatlar bilan birgalikda realistik belgilar ham ko‘zga tashlanib turadi. Alpomish va Odissey o‘rtasidagi farq faqatgina “metinlik” xususiyati bilan kifoyalanmaydi. Ushbu qahramonlarning jangovar harakatlari tasvirida ham o‘ziga xos tafovutlar ko‘zga tashlanadi. Avvalo, ikkala dostondagi jang epizodlarining ifoda shakliga to‘xtalaylik. “Alpomish” dostonida urush lavhalari sakkiz bo‘g‘inli she’r ko‘rinishida ifodalanadi:

*Qilich solib alvon-alvon,
Bandam desin qodir mavlon.
Shul sifatda mard Hakimxon
Qon to‘kar maydon ichinda. [3,35]*

Bu o'zbek xalq dostonlariga xos umumiy xususiyat bo'lib, qahramonlar tasviri yoki dialog o'rinlaridan farqli ravishda poyga, jang kabi shiddatli epizodlar shunday qisqa bo'g'inli she'riy shaklda kuylanadi. "Odisseya" dostonida esa jang lavhalarida ham, boshqa o'rinlarda ham bir xil bo'g'inli shakllar ishlatiladi. Ya'ni, "Alpomish" dostonida boshqa o'zbek xalq dostonlarida bo'lgani kabi voqealar rivojiga mos tarzda barmoq vaznining turli ko'rinishlaridan foydalanilgan bo'lsa, "Odisseya" dostonida yagona vazn (gekzometr) saqlangan:

Odisseyning qo'ldoshlari ham yovlarni naq lochinlardek

Har yon quvib shafqat bilmay, boshladilar bir-bir qiyrata. [4,253]

Bu tafovut dostonlarning biri og'zaki, ikkinchisi esa yozma adabiyot namunasi bo'lganligi bilan asoslanadi. "Odisseya" dostoni muallifi aniq asar sifatida tashqi shakliga ko'ra folklor namunalari bilan farq qilishi tabiiy hol.

Shuningdek, "Alpomish"da bosh qahramon dushmanlarini nisbatan osonlik bilan yengsa, "Odisseya"da qahramon yetarlicha qiyinchilikka uchraydi. Bu yerda ham dostonlarning og'zaki va yozma xususiyati farqlanishga asos bo'ladi. Alpomishning jangovar harakatlarini aks ettiruvchi lavhalarida mubolag'ador uslub qo'llangan bo'lsa (masalan, u otgan o'q Asqar tog'ining bir uchini o'pirib yuborishi yoki bir o'zi butun boshli qalmoq qo'shinini osonlik bilan qirib tashlashi), Odisseyning doston so'ngida raqiblaridan o'ch olishi jarayonida realistik jang tasvirlarga guvoh bo'lamiz. Bu xalq dostonlariga xos bo'lgan mubolag'ali tasvir usuli va Gomerning realistik usuli o'rtasidagi farqning natijasidir. Shu bilan birgalikda, Alpomishga turli kurashlarda doimiy ravishda tulpori Boychibor hamroh bo'ladi va unga katta yordam beradi. Boychibor ham Alpomishga mos tarzda bir qator ilohiy xususiyatlarga ega edi. Odisseyning kurashlarida esa jonivorlar ishtirok etmaydi. Bu tafovut ham milliy xususiyatlardan kelib chiqadi. Ma'lumki, Sharq dostonchiligida jangovar ot obrazi juda keng tarqalgan. Raxsh, G'irko'k, Jiyronqush, Boychibor singari otlar xalq qahramonlarining vafodor do'sti va doimiy hamrohi sifatida talqin etilgan. Bu xususiyat Sharq xalqlarining xo'jalik hayoti va ijtimoiy turmushi bilan bog'liq. Yunon afsonalarida ham bir qator tulporlar faol ishtirok etsa-da, ushbu jarayon doimiy tus olmaydi. Ya'ni yunon folklorida jangovar ot obrazining faol ishtiroki adabiy an'ana darajasiga ko'tarilmagan. "Odisseya" dostonida esa tulpor obrazi mutlaqo ishtirok etmaydi. Buning sababi Odissey asosiy sarguzashtlarini dengizda boshidan o'tkazadi. Yunonistonning geografik joylashuvi dengiz orollaridan iborat bo'lganligi buning asosiy omilidir.

"Alpomish" va "Odisseya" dostonlaridagi qurol-yarog'lar tasvirida ham turli farqlanishlarga guvoh bo'lish mumkin. Har ikki dostonda ham asosiy qurol sifatida kamon tasvirlanadi. Alpomish va Odisseyning kamoni umumiy o'xshashlikka ega bo'lish bilan birgalikda farqli sifatlarga ham ega edi. Masalan, Alpomishning kamoni birinch(bronza)dan yasalgan bo'lib, o'n to'rt botmon og'irlikka ega edi. Bu kamonni Alpomishdan boshqa hech kim ko'tara olmas edi. Odisseyning kamoni esa og'irlik xususiyatiga emas, taranglik xususiyati ega edi. Odisseyning kamoni ko'tarish

mumkin. U Alpomishning kamonidek og'ir vaznga ega emas. Chunki bu kamon og'ir metallardan emas, zarang daraxtining novdasidan yasalgan edi. Bu yerda "badiiy asoslash" prinsipiga amal qilingan. Chunki, yog'ochdan yasalgan kamon ko'tarib bo'lmas darajada vazmin bo'lishi mumkin emas edi. Shu xususiyat bilan ham Gomerning realistik usuli yana bir bor namoyon bo'ladi. Ammo bu kamonga ipni tortib bog'lash bosh qahramondan boshqa hech kimning qo'lidan kelmaydi. Har ikki dostonidagi bu xususiyat ramziy ma'noga ega bo'lib, bosh qahramonlarning boshqalardan kuch-qudrat borasida ajralib turishini ifodalaydi. "Alpomish" va "Odisseya" dostonidagi kamonlarning yuqoridagi kabi sifatleri boshqa qahramonlik dostonlarida ham uchraydi.

Xulosa. Qahramonlik eposlari barcha xalqlar adabiyotida muhim o'ringa ega bo'lib, ko'plab umumiy xususiyatlar bilan birgalikda farqli belgilarga ham ega. "Alpomish" va "Odisseya" dostonlarining qiyosida bu jarayon aniq ko'rinadi. Ushbu dostonlardagi asosiy qahramonlar ishtirok etgan jang lavhalari, qurol-yarog'lar tasvirida turli tafovutlar mavjud. Bu farqlanish esa og'zaki va yozma adabiyot, shuningdek, turli xalqlarning milliy xususiyatlari bilan asoslanadi.

ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. Сулаймонова Ф. Шарқ ва ғарб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.
2. Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение: Восток и запад. – Ленинград: Наука, 1979
3. Алпомиш. II китоб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993
4. Ҳомер. "Одиссея". – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016.
5. Kholmatov, O. U. U. (2020). Interpretation of "lost generation" in the creation of Erih Maria remark. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 1654-1659.
6. Kholmatov, O. U. U. (2021). NEW LITERARY VIEWS ON THE THEME OF WAR IN UZBEK LITERATURE. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES* (2767-3758), 2(11), 90-93.
7. Ugli, K. O. U. (2022). On the study of the topic of war in Western literature. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 4, 140-143.